O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO VILOYAT XALQ TA`LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG`ICH VA MAXSUS TA`LIM METODIKALARI KAFEDRASI

DARSLARDA TASHKIL ETILADIGAN DAM OLISH DAQIQALARINING BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING SALOMATLIGIGA IJOBIY TA’SIRI



BUXORO - 2021

Ushbu uslubiy tavsiya boshlang’ich sinf o’qituvchilari, tarbiyachilari hamda maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyachlari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda bolalar uchun qiziqarli she`rlar va sanamalar berilgan.

Tuzuvchilar:

M.S.Narziyeva - BVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim metodikalari kafedrasi katta o`qituvchisi

N.X.Aslanova - BVXTXQTMOHM Maktabgacha va boshlang’ich ta`lim kafedrasi o’qituvchisi

Taqrizchilar:

G.T.Yadgarova - BVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim metodikalari kafedrasi mudiri, ps.f.n

F.S.Safarov - BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Ushbu metodik qo`llanma VXTXQTMOHM ilmiy kengashining 2021-yil 31- martda o`tkazilgan 2-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o'quvchilarining diqqati tarqoq bo'lganligi sababli darslarda tez toliqish holatlari uchraydi. Shuning uchun ham darslarda dam olish daqiqalaridan foydalanish bu holatning oldini oladi. Ushbu tavsiyanomada turli qiziqarli she'rlardan, sanamalardan foydalanilgan, bular orqali o‘quvchilar diqqati dars jarayoniga qayta jalb etilib, ularning og'zaki nutqi ham o’sib boradi. Tavsiyanoma boshlang'ich sinf o’qituvchilari uchun metodik yordam sifatida o’quvchilarning diqqatini darsga jalb etish va ulardagi charchoq holatlarini bartaraf etish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu tavsiyanomadan har bir darsda foydalanish mumkim. To’plamdagi she`r va sanamalar o’quvchilar uchun qiziqarli bo’libgina qolmasdan o’quvchilar og’zaki nutqini o’stirishga muhim ahamiyatga ega. Bu she`r va sanamalar o’quvchlarning diqqatlarini jamlab olishga yordam berishi bilan birga, ularning og’zaki nutqini o’stirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uslubiy tavsiyanomadagi she'rlar va sanamalar o'quvchilar uchun qiziqarli mavzularda va yod olishlari ham oson. Mazkur tavsiyanoma boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kerakli manba bo'lib xizmat qiladi.

DARSLARDA TASHKIL ETILADIGAN DAM OLISH DAQIQALARINING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING SALOMATLIGIGA IJOBIY TA'SIRI

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, bolalarning individual o‘sishi va rivojlanishiga katta e’tibor berilmoqda. Chunki bola salomatligini saqlash davlat siyosati ahamiyatiga ega bo‘lgan birinchi darajali ishlardan hisoblanadi. O‘sib kelayotgan organizmni to‘g‘ri tarbiyalash uchun bola organizmini o‘sish va rivojlanish kabi asosiy xususiyatlarini bilish zarur. O‘sish va rivojlanish barcha tirik organizmlar kabi, odam organizmiga xos hususiyatdir. Organizmning har tomonlama o‘sishi va rivojlanishi uning paydo bo‘lgan vaqtidan boshlanadi. Bu ikki jarayon murakkab hisoblanib, bir butun va bir-biriga bog‘langandir.

Bolalarni individual o‘sish va rivojlanishini e’tiborga olmasdan turib ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish mumkin emas. Bolalarning yoshlariga nisbatan aqliy kamol topishi ularning shaxsiy qobiliyatiga va atrof-muhit sharoitiga ham bog‘liqdir. Bolalarning jismoniy va aqliy jihatdan o‘sishi va rivojlanishida, turmush sharoiti, maktabdagi mehnat faoliyati, jismoniy mashqlar o’ta muhim ahamiyatga ega. Xususan, kuchli aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan dars va mashg‘ulotlarda charchashning oldini olish va ishlash qobiliyatini saqlash maqsadida yengil jismoniy mashqlarni bajarish zarur. Jismoniy daqiqalar va o‘yinlar asosida o’quvchilar harakatlarini takomillashtirish, ularda jismoniy sifatlar (tezkorlik, chaqqonlik)ni, kundalik harakat faolligiga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish bolada aqliy jadallikni shakllantiradi. Darslar jarayonida amalga oshiriladigan kichik harakatli pauzalar paytida chidamlilik, diqqatni saqlash, harakatlarni boshqarish va fazoda chamalashni takomillashtirish samarali amalga oshadi. Bu bolalarda uyushqoqlik bilan harakat qilish, matonat, mustaqillikni ko‘rsatish, o‘rgatish jismoniy mashqlarga qiziqish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bir-birini qo’llab quvvatlash, mashqlarni faqat ko‘rsatgandagina emas, balki so‘z bilan tushuntirganda ham aniq bajarishga o‘rgata borish orqali amalga oshiriladi. Mashqlarni aniq, berilgan tezlikda, musiqa ohangi yoki ritmga moslab bajarish esa bolalarda o’qituvchining ko’rsatmalariga amal qilish va atrofdagilar harakatiga e’tiborli bo’lish asosida harakat qilishga yordam beradi. Jismoniy daqiqalarda sanash ohangi, turli tana harakatlari, mimika va pantomimikaning ishtirok etishi esa bolalarda taqlidchanlik, aktyorlik va imitatsion mashqlarga bo’lgan qiziqishini shakllantirishga yordam beradi.



Mening yurtim O`zbekiston
Gullarga boy bog`u bo`ston
Uning bog`ida yayrab
Qushlar uchar chamanlab

Yer katta, bizlar kichik
Ammo bizlar ko’pchilik
Istagimiz yagona
Dunyoda bo’lsin tinchlik.





Biz a’lochi o’quvchimiz

Yuzga yetar kuchimiz

Xalqimiz tarixini,

O’rganish chin burchimiz

Xalq hikmatin chuqur mazmuni
Kimni ko’rsang besalom o’tma
Balki qayta ko’rmassan uni,
Insonga xos burchni unutma.

Barmoqchalarim buklab,

Jajji qaddimni tiklab.

U yon, bu yonga qarab,

Qadam tashlay bittalab.



Bizlar besh aka-uka
Inoqmiz-o, inoqmiz,
Birlashsak ham
Bellashsak ham
Quvnoqmiz-o,
quvnoqmiz.

Oy mening barmoqlarim
Men senga dam beraman
Toza chiroyli yozsak
Senga rahmat aytaman



Besh barmog’u, besh barmoq
Beshalasi esh barmoq
Qo’shsam agar barisin
Bo’lar rosa o’n barmoq

Kaft va musht, sen ham bajar
Hoy o`rtoq, goh mushtum, goh shapaloq.

O’ng qo’limiz chiroyli
Chap qo’limiz chiroyli
Qo’lda chapak chalamiz
Boshni qimirlatamiz
Oyoq bilan yuramiz
Astagina o’tiramiz



Bulut bo‘lib suzamiz

(chayqaladi)

Shamol bo‘lib to‘zamiz

(hu-hu-hu)

Yomg‘ir bo‘lib yog‘amiz

(shitir-shitir)

Quyosh bo‘lib chiqamiz (*o‘tirib qo‘llar ochiladi)*



Sog‘lom quvnoq bolaman,

Mehnatdan zavq olaman.

Agarda ish qilmasam,

Tez zerikib qolaman.

O‘rnimizdan turamiz

Boshni qimirlatamiz

Qo‘lda chapak chalamiz

Oyoq bilan yuramiz

Astagina o‘tiramiz



Kattalarga dastyorman,

Xizmatiga tayorman.

Foydam tegsa ularga,

Men tengsiz

baxtiyorman.

Bir ikki turamiz,

Ayiq bo‘lib yuramiz.

Quyon bo‘lib sakraymiz,

Baliq kabi suzamiz.

Oqqush bo‘lib uchamiz,

Astagina o‘tiramiz.



Kulrang g‘ozlar uchdilar
Ko‘lmakchaga qo‘ndilar.
U yon, bu yonga qarab
Yana uchib ketdilar.

Men bo‘riman, bo‘riman,
Hayvonlarning zo‘riman.
Xayol surgan paytimda,
Quyonni xush ko‘raman.





Quyon –quyon,
kelgin buyon.
Qo‘rqma buncha,
qurdik uycha.
Kunduz tunda,
mazza bunda.

Ayiq bo’lib yuramiz
Qushlar bo’lib uchamiz
Baliq bo’lib suzamiz
Astagina o’tiramiz



Ayiq yurar lapanglab,
quyon yurar dikirlab,
Ayiqning uyi katta,
quyonniki - kichkina.
(O‘quvchi asta o‘tiradi)

Ayiq asal yalaydi ko’p-ko’p
Arilar uni talaydi xo’p-xo’p
Yur yordamga boraylik tez-tez
Fan olami go’yo bir dengiz,
Javohirlar unga beqiyos



Chumchuq “chirq-chirq” etadi
Donni cho’qib ketadi
Cho’qisa-ku mayliga
Nega to’kib ketadi.

Ayyor tulki och qoldi
Ov qilishga otlandi
Yo`lda borayotib u
Quyonni ko`rib qoldi





Quyonni aldab-aldab
Boshini silab qo`ydi
Quyon tezda fahmlab
O`zini o`nglab oldi
Tulkini yonidan u
Juftakni rosatlab qoldi

Oq qushim, oppoq qushim,
Qanot qoqib uchasan.
Bulutlardan balandlab,
Samolarni quchasan.





Tulki och qolib bir kun,
Ov qilishga otlandi.
Quyonvoyga duch kelib,
Oh-oh juda shodlandi.

Quyonni aldab- avrab
U shaylandi yemoqqa
Abjir quyon shu tobda
Qochib qoldi o`rmonga





Quyon – quyon,
Kelgin buyon.
Qo’rqma buncha,
Qurdik uycha.
Mazza buncha,
Dam olguncha.

Men kuchli ot bo`laman,

Juda ham zo`r kishnayman.

Dukur dukur men yurib,

Charchash nima bilmayman.





Echkilar sakrab yurar

Ko`m- ko`k maysa o`tloqda

Qo`rquvdan joni halak

Nazar solar atrofga

Shoxdor echki

Shoxdor echki kelmoqda

Bolalarni ko`rmoqchi

Kim ichmasa sutini,

Kim yemasa oshini,

Suzib oladi uni



Quyosh charaqlab ketdi,

Olam yaraqlab ketdi,
Chiroyli yozgan edim,
Shamol varaqlab ketdi.

Erta tohgda

Quyosh turib

Bolalarni erkalaydi,

Boshlarini silaydi.



Derazani ochaman,

Toza havo kirsin deb.

Badantarbiya qilaman,

Tanam kuchga to‘lsin deb.



Gulzorimda kapalak

Guldan-gulga qo‘nadi.

Oyi, poylab turmasam

Gulni uzib ketadi.

Asalari qo`nib gulga,
Sharbat yig`ar tuguniga.





Atirgul edi g`uncha,
Ochilibdi tong otguncha.

Tarnovlarda sumalak, sumalak, sumalak
Suv oqadi chaki-chak, chaki-chak, chaki-chak
Sumalak jilovlanar, qo‘shig‘i dilga yoqar(ikki marta)



Bo‘yi bahor az sumalak
Oshi nahor az sumalak
Ohi bo‘yi shaftoli
Ohi bo‘yi zardoli

Chamanzorni siz qarang

Gullar ochilgan rang-barang

Bu gullarning hididan

Biz bo`lamiz hangu-mang



Bahorda gul ochildi,

Osmondan nur sochildi

Gulni terib olaylik,

Chakkamizga taqaylik.



Qani, uch, ey vertolyot

Parraging tez aylantir.

Ortda qolsin samolyot,

Parraging tez aylantir.



Quchoq-quchoq gul terdik,
Qaytib opamga berdik.
Bizga holva qand berdi,
Quvonib rahmat dedik.

Pag`a-pag`a qor yog`di
Buni ko`rgan bolalar
Tashqariga otlandi
Qordan koptoklar yasab
Qor bo`ronni boshladi
Hamma charchab o`yindan
Tez-tez holsizlandi



Maktabdan uyga qaytdim

Yo`lga shamollab qoldim

Sovuqdan dir-dir titrab

Oyimga men yig`ladim

Issiq issiq choy ichib

Darrov tuzalib qoldim





Salimaning boshiga ustozning ko`zi tushdi

Yuvilmagan sochini yashirincha ushladi

Ustoz boshini silab yuvishni tayinladi

Salima uyga kelib boshini tozaladi

Oynasiga qarab u sochini turmakladi

Oyisi bun ko`rib juda quvonib ketdi

Bir ikki turamiz

Qo`llarni belga qo`yib

O`ngga chapga egilib

Do`stlarni chaqiramiz

Badan tarbiya qilib

Astagina o`tiramiz

Darsimizni boshlaymiz

Ustozimni tinglaymiz





Kattalashar puflasangiz

Huddi katta koptokcha

Biz ularni o`ynaymiz,

Quvlab, qochib, quvnaymiz.

Yorildi-yu “paq” etdi,

Havosi chiqib ketdi.

Darvozabon bo`lamiz

Koptokni tezda ushlab

O`rtaga otvoramiz

Oyoqlarda o`ynatib

Raqibga biz tepamiz

Gol gol bo`ldi ana

Do`stlashamiz biz yana





Futbolchi Sarvar

Zo`r darvozabon

Umid hujumchi

Unga zo`r qalqon

Aldab raqibni

To`pni soz urar

Maydonda epchil

Koptokni surar



Chaling-chaling sozizni

Qarsillatib o`ynaylik

Chalib-chalib qarsakni

Birga-birga quvnaylik

Hoy Botir Botir Botir

Sozlab chalgin cholg`ingni

Biz tushaylik raqsga

Voy Malikani siz ko`ring

Oynar o`xshab tovusga



Oyi menga tez qarang

Belginamni uqalang

Sho`r narsalar yeganman

Qimirlolmay man garang

Surpa yoyilgan, xamir qorilgan

Lo‘ppi bo‘g‘irsoq, shirin bo‘g‘irsoq

Qozonda tushgan, qizarib pishgan

Lo‘ppi bo‘g‘irsoq, shirin bo‘g‘irsoq



Supraga un elandi

Supra unga belandi

Xamir qordik ozgina

Kulcha yoptik tezgina



Hoy bobojon bobojon

Sizga men yordam beray

Ketmonni olib kelib

Yerlarni tezda chopay

Makkani yerga sepib

Hayvonlarga yem jamlay



Ifloslangan kirlarni

Tog`oraga men yuvdim

Yaxshilab qoqib-qoqib

Sim torlarga tashladim





Quyoshni nurlariga
Kirlarimni qurutdim
Kirlarimni dazmollab
Oyimni xursand qildim

Qo`g`irchogim oppoq
Yuzlari do`mboq
Munchoq munchoq ko`zlari
Yonib turar yuzlari
Sochlarichi jingalak
Taray olmay men halak
Bejirim ko`ylakchasi
Yaltirar tuflichasi
Qo`g`irchog`im oppog`im



Salom deymiz hammaga

Tog`a, xola, ammaga

Hatto qo`shni hovlida

Yurgan tovuq xolaga.



Besh barmoq bo`lsa birga

O`xshar xuddi  g`ozlarga

G`ozlar g`ozni ko`rganda

Deyishadi g`a-g`a, siz qayda?

Baland –baland

Uchamiz- uchamiz

Charchash nima

Bilmaymiz- bilmaymiz

O`tirib dam olamiz,

Yana uchib ketamiz.

Bog`bon o`tin ko`tarib

Uyiga olib kirdi

Momojonni chaqirib

Non yopishni buyurdi



Momosi o`tinni qalab

Issiq nonni pishirdi

Bog’bon isini hidlab

Nonni paqqos tushirdi

Shamol- shamol hay
shamol,

Hammadan chaqqon
shamol.

Bog`imizga kel tezroq,

Pishgan-pishgan olma qoq.





Asta mayin esdi shamol

Kokil yoydi majnuntol

Anhor suvi sekin oqdi

Oh! Shamoli menga
yoqdi.

Darslikka ko‘z tashlaymiz

Yangi darsni boshlaymiz.



Chiroyli yoz hamisha

Ko‘rganlar desin “yasha”

Chiroyli yoz, yozsang xat

Chunki bu ham so‘z san’at



Jiringlasa qo‘ng‘iroq

Darsga kirgin ey o‘rtoq

Lallayma, shalpayma

To‘g‘ri o‘tir anqayma



Darsimizni boshlaymiz,
Mashqu misol ishlaymiz.
Olgan bu bilimlarni,
Bu hayotda qo‘llaymiz.

Biz nimaki qilmaylik,
Barchasi zarur kerak.
Bilim egallash uchun,
Tinimsiz o‘qish kerak.





Ruchka deydi yozamiz
Bilim konin qazamiz.
Faqat meni sindirmang
Yoza-yoza tindirmang

Hoy mening barmoqlarim
Men senga jon beraman
Agar chiroyli yozsang
Senga rahmat aytaman



Yoza-yoza qo‘llarim
Charchadi barmoqlarim
Agar chiroyli yozsang
Rahmat deydi muallim

- Bolajonlar sog‘misiz,

Darsimga tayyormisiz?

- Ustozjon biz sog‘lommiz,

Darsingizga tayyormiz.



O‘qish darsi bizlarga,
O‘rgatar so‘z o‘qishni.
Ifodali o‘qishni,
Yaxshi ravon so‘zlashni.



Biz bilamiz o‘zimiz,

Qayda ikki ko‘zimiz.

Chap-chap-chap

O‘ng-o‘ng-o‘ng.

Shirmoy nondek va oydek,

Bizning ikki yuzimiz.

Chap-chap-chap

O‘ng-o‘ng-o‘ng.

Qarang kuchli
bo‘lamiz,

Qarang kuchga
to‘lamiz.

Chap-chap-chap

O‘ng-o‘ng-o‘ng.



Go‘yo uchqur sayyohlar

Bizning ikki oyoqlar

Chap-chap-chap

O‘ng-o‘ng-o‘ng

Endi sizga o‘rtoqlar

Xayr deydi barmoqlar



Yoza-yoza qo’llarim
Charchamas
barmoqlarim
Agar chiroyli yozsam
Rahmat deydi
muallim

Matematika kerak
Har bir o’g’il va qizga
Aqlini va fikrini
Soladi yaxshi izga





Juda chaqqon o’zimiz
Juda o’tkir ko’zimiz ,
Juda shirin so’zimiz,
Hamma harfni bilamiz
Biyron o’qiy olamiz

Uch baho-yu, uch baho,
Tagi bo’m-bo’sh puch baho
“Ikki”ning yomon qo’shnisi
“Besh” uni tanimaydi
Og’aynilar olmang “uch” Sizda bor “Besh”
“to’rt’ga kuch



Yozdik-yozdik
Charchadik.
Ruchkani qo’yib,
Dam oldik.

Harf yozishni boshlaymiz
Katta chiziq, kichik chiziq
Biz yozamiz uzuq-uzuq
Katta chiziq, kichik chiziq
Yozuvlarim juda qiziq



Раз – подняться, потянуться.
Два – согнуться, разогнуться.
Три – в ладоши три хлопка,
Головою три кивка.
На четыре руки шире.
Пять - руками помахать.
Шесть – на место тихо сесть.
Будем дружно рисовать,
И картины создавать. *(Выполняем движения. соответствующие тексту)*



Дружно встанем мы опять, *(поднимаем руки вверх, соединяя, как круг)*
Будем в солнышко играть *(наклоняемся вправо и влево)*
Мы - веселые лучи *(вытянуть руки вперед, сдвигая и раздвигая пальцы)*
Мы – ярки и горячи *(поворачиваем ладони вверх),*
Раз, два, три, четыре, пять, *(сжимаем и разжимаем кулачки)*
Будем дружно рисовать. *(садимся)*

В гору лезут альпинисты,
(Поднимаем руки высоко вверх).
Вниз летят парашютисты,
(Плавно. Кружась опускаем руки вниз)).
Вверх стремятся скалолазы,
(Перебираем руками, имитируя подъем по канату)
В море рвутся водолазы.
(Делаем волнообразные движения руками).



Раз, два, три, четыре, пять
Все умеем мы считать,
Отдыхать умеем тоже.
Руки за спину положим.
Голову подымем выше
И легко-легко подышим…
Мы топаем ногами,
Мы хлопаем руками,
Киваем головой.
Мы руки поднимаем,
Мы руки опускаем
И вновь рисовать начнем.

***

Пальчик толстый и большой
За подсолнухом пошёл.
Указательный с порога
Указал ему дорогу.
Средний пальчик – самый меткий.
Он сбивает зёрна метко.
Безымянный – поедает.
А мизинчик – господинчик
В землю зёрнышки сажает.



***

Берёзка в белом сарафане *(шаги на месте)*
Весною водит хоровод *(руки на поясе)*,
Звенит серёжками тихонько *(повороты в правую и левую сторону)*
И птичек в гости всё зовёт *(ритмичные взмахи руками).*
Раскроет свои руки-ветки, *(руки в стороны)*
Опустит ветки-пальцы вниз (*сводят руки к центру вниз).*

***

Представьте себе, что мы находимся в осеннем лесу
и идём по дорожкам.
Вот мы остановились и
Руки подняли и покачали
Это деревья в лесу.
Руки согнули,
Кисти встряхнули
Ветер сбивает росу
В сторону руки,
Плавно помашем
Это птицы на юг летят.
Как они сядут, тоже покажем
Крылья сложили назад.



Вот помощники мои,
Их как хочешь поверни.
Раз, два, три, четыре, пять.
Продолжаем рисовать.



Наша бабочка встряхнулась,
Улыбнулась, потянулась.
Раз – росой она умылась.
Два – изящно покружилась.
Три – нагнулась и присела.
И нектара всласть поела.
Дети выполняют движения в соответствии с текстом.

***

Прилетела к нам вчера
Полосатая пчела.
(Дети машут ладошками.)
А за нею шмель-шмелёк
И весёлый мотылёк,
Два жука и стрекоза,
(На каждое название насекомого загибают один пальчик.)
Как фонарики глаза.
(Делают кружочки из пальчиков и подносят их к глазам.)



Пожужжали, полетали,
(Машут ладошками.)
От усталости упали.
(Роняют ладошки на стол.)

Xulosa sifatida aytadigan bo’lsak, o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyati muhitida ta’lim berish yanada jonli va ongli ravishda interfaollashadi va unga o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan jismoniy daqiqalarning ahamiyati katta bo‘ladi. Chunki jismoniy daqiqalar o‘quvchilarga o‘quv materialining mazmun-mohiyatini anglab yetishda muhim vosita hisoblanadi, shuningdek, uning yordamida o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan (rejalashtirilgan) maqsad bo‘yicha to‘g‘ri borayotganligini nazorat qilib borish ham mumkin bo‘ladi.

Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatini yuksaltirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda didaktik materiallarga asoslanish ko‘rib chiqilayotgan faoliyatning ijobiy natijaga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Shunga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda ham didaktik materiallar ushbu faoliyat asosidagi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning mustahkam didaktik asosini tashkil etadi. Boshlang‘ich ta’limga oid dars mashg‘ulotlarini zamonaviy talablar asosida olib borish uchun ta’lim mazmunini takomillashtirish va uning sifatini yaxshilashga e’tibor berish kerak. Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish va rivojlantirishga muntazam ravishda innovatsion uslublarni ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish va joriy etishda quyidagilarni doimo e’tiborda tutish kerak: xalqimizning boy ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlariga suyangan holda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish va ulardan amaliyotda keng foydalanish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy fazilatlarni shakllanatirish

jarayonini ifodalovchi ta’lim (tarbiya) jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor kuchliroq qaratilmog’i lozim.